O'zbekiston amaliyotida innovatsion korxonalar uchun soliq imtiyozlari asosan QQS, foyda solig'i hamda aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha taqdim etilgan. Biroq ko'plab tadqiqotchilar ushbu imtiyozlar samaradorligining pastligini, chunki ular innovatsion jarayonning barcha bosqichlarini qamrab olmayotganini ta'kidlaydi. Shu sababli soliq imtiyozlari samaradorligini baholash uchun maxsus koeffitsiyentlar (K_1 , K_2 , K_3) taklif etilmoqda.

Xalqaro tajriba, xususan Rossiya, Qozog'iston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari amaliyoti shuni ko'rsatadiki, soddalashtirilgan soliq rejimlari kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu mamlakatlarda QQSga o'tish uchun belgilangan chegaraviy miqdorlar iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda muntazam qayta ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda ham mazkur mezonlarni inflyatsiya darajasi, aholi daromadlari hamda valyuta kursi o'zgarishlarini inobatga olgan holda yangilab borish zarurligi ilmiy jihatdan asoslanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiy faollikni ta'minlashga qaratilgan va davlat tomonidan tartibga solinadigan makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida davlat fiskal va monetar siyosatlarining nazariy-metodologik masalalari bir qator xorijiy taniqli iqtisodchi olimlar, jumladan, J. Keyns, M. Fridmen, F. Maxlup, M. Pebro, G. Kassel, R. Mandell, M. Mussa, M. Obstfeld, J. Frankel, D. J. Teylor, R. Dornbush hamda o'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N. Jumaev, T. Bobakulov, T. Rasulov, B. Islomov, Z. Berdinazarov, S. Chepel, N. Sirajiddinov, Sh. Rajabbaev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida pul-kredit siyosatining ayrim nazariy-metodologik va amaliy jihatlari doirasida tadqiq etilgan.



Yuqorida ko'rsatilgan xorijiy va mamlakatimiz adabiyotlarida davlat fiskal va monetar siyosatlarining iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi moliyaviy salohiyatining ayrim qirralari, ahamiyati, xususiyatlari, turlari hamda boshqa jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Biroq hanz davom etayotgan "global inqiroz" sharoitida iqtisodiy faollikning pasayishi mazkur yo'nalishda yanada chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini taqozo etmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor prinsiplariga asoslangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi asosiy dastaklari sifatida fiskal (budjet-soliq) va monetar (pul-kredit) siyosatlar e'tirof etiladi. Fiskal siyosat ishlab chiqarishning real hajmini va bandlik darajasini o'zgartirish, inflyatsiyani nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish maqsadida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti orqali iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi hisoblanadi.


Soliqlar va yig'imlar tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i bilvosita soliq hisoblanib, uning haqiqiy soliq yuki mahsulotni ishlab chiqaruvchiga emas, balki ushbu mahsulotning oxirgi iste'molchisiga to'g'ri keladi, chunki mazkur soliq mahsulot qiymatiga kiritilib, xaridor tomonidan to'lab beriladi. 2019-yil 1-yanvardan boshlab o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki yil davomida belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalarni umumbelgilangan soliqlarni to'lash tizimiga o'tkazish belgilangan bo'lib, bunda yillik oborot (tushum)ning 1 milliard so'm etib belgilangan chegaraviy miqdori har 3-yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan(1-jadval)³.

1-jadval. Umumbelgilangan soliq rejimiga o'tishning miqdori kiritilgan davrdagi hisob-kitobi⁴

1000 000 000 so'm	Eng kam ish haqi	01.11.2018	202730 so'm	4932,7 barobar
	AQSh dollari kursi	01.01.2019 8	336.25 so'm	120000\$

Belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalarni umumbelgilangan soliqlarni to'lash tizimiga o'tkazish bo'yicha yillik aylanma miqdori joriy etilgan davrdagi eng kam ish haqining 4,9 baravaridan ortiq bo'lgani hamda xorijiy valyutadagi ekvivalent qiymati bilan taqqoslanganda taxminan 120 ming AQSh dollariga teng bo'lganini ko'rish mumkin.

Soliq konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida bevosita soliqlar ulushining jami soliq tushumlaridagi hissasi oshgani kuzatiladi. Mazkur holat ijobiy natija bo'lib, soliq stavkalarining pasaytirilishi hisobiga daromadlar hajmining ko'payishiga xizmat qilganini anglatadi. Shu bilan birga, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari soni 2016-yilga nisbatan 22 baravarga oshib, 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 190 ming nafarni tashkil etgani qayd etiladi(1-rasm).



1-rasm. Soliq to'lovchilarning 2016–2023-yillardagi dinamikasi⁵

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni.


4 Muallif tomonidan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tayyorlandi.

5 Muallif tomonidan Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Soliq rejimlari doirasida soliq to'lovchilarga nisbatan soliq yuki yuqori bo'lgan holatlarda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatiladi, ularning iqtisodiy faolligi cheklanadi hamda ayrim hollarda "xufiyona iqtisodiyot"ga o'tish xavfi yuzaga keladi. Pirovard natijada bu holat davlat daromadlarini shakllantiruvchi soliqlar va yig'imgar tushumining pasayishiga, mamlakatda ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishiga hamda oxir-oqibat yalpi ichki mahsulot hajmining kamayishiga olib keladi.

O'zbekistonda mehnatga haq to'lash, pensiya tayinlash, shuningdek, soliq, davlat bojlari, jarimalar, yig'imgar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish o'rtasidagi bog'liqlikni bartaraf etish maqsadida 2019-yil 1-sentabrdan boshlab ish haqining eng kam miqdori o'rniga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori hamda bazaviy hisoblash miqdorlari joriy etilgan.



2-rasm. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdorlari dinamikasi⁶

Oxirgi iste'molchilarning daromad darajasi, yillar davomida mamlakatdagi inflyatsiya sur'atlari hamda umumiy talabga ta'sir etuvchi omillar tahlili asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyati doirasida amalga oshiriladigan tovar aylanmalariga mos soliq rejimini belgilash mezonlarini qayta ko'rib chiqish lozim deb topildi. Ish haqining eng kam miqdori o'rniga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdorlarining joriy etilishi aholi iste'mol imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilib, taklif etuvchi tadbirkorlik subyektlari tovar aylanmalarining oshishiga olib keldi.

Umumbelgilangan soliq rejimiga o'tish, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi sifatida faoliyat yuritish uchun belgilangan mezonlarning joriy etilgan davrdagi ko'rsatkichlari bugungi kundagi ma'lumotlar bilan solishtirib hisob-kitob qilinganda sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, amaldagi bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan ushbu ko'rsatkich 1,6 mlrd so'mni, joriy etilgan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan 4,8 mlrd so'mni hamda AQSh dollari ekvivalentida 1,5 mlrd so'mni yoki o'rtacha hisobda 2,6 mlrd so'mni tashkil etmoqda.

2-jadval. Umumbelgilangan soliq rejimiga o'tishning bugungi kundagi miqdorining hisob-kitobi⁷, so'mda

4932,7 barobar	Bazaviy hisoblash miqdori	01.11.2023	330000 so'm	1627 000 000
	Eng kam miqdor		980000 so'm	4834 046 000
120000\$	AQSh dollari kursi	06.11.2023	12254 so'm	1 470 480 000
O'rta hisobda				2643 842 000

Xalqaro amaliyotdagi mavjud holatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xususan Rossiya Federatsiyasida soddalashtirilgan soliq rejimi tatbiq etiladigan korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qo'shilgan qiymat

⁶ Muallif tomonidan Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

⁷ Muallif tomonidan iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tayyorlandi.




solig'i to'lovchisi hisoblanmaydi. Bunda yillik tovar aylanmasi 251,4 mln rublni (2,7 mln AQSh dollari) tashkil etmasligi va ishlovchi xodimlar soni 130 nafardan oshmasligi lozim. Qozog'iston Respublikasi Soliq kodeksining 82-moddasi 4-bandiga asosan esa qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ro'yxatdan o'tish miqdori eng kam ish haqining 20 000 baravari yoki 69 000 000 tenge etib belgilangan bo'lib, bu 147 366,96 AQSh dollariga teng (ma'lumot uchun: 2023-yilda EKI 3 450 tenge).

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, kichik tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini yanada adolatli taqsimlash maqsadida umumbelgilangan soliq rejimiga o'tish, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi sifatida faoliyat yuritish uchun amaldagi mezon miqdorini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda aylanmadan olinadigan soliqni to'lash huquqini saqlab qolish uchun faoliyat joyida xuddi shu faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa soliq to'lovchi bilan almashtirish yoki faoliyatni ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasida bo'lish holatlari biznesni bo'lish sifatida e'tirof etilishi lozim.

Soliq mexanizmlaridan foydalanish asosida innovatsion rivojlanishni ta'minlash, odatda, soliq imtiyozlari va yengilliklarining innovatsion korxonalar faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'siriga asoslanadi. Ayni paytda soliqlardan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida foydalanish soliqlarning tartibga solish, jumladan rag'batlantirish, cheklash va qoplab berish funksiyalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tartibga solish funksiyasining ta'siri soliq to'lovchilarning turli obyektlari va toifalarini notekis soliqqa tortish orqali namoyon bo'ladi. Soliq yukining notekisligi, o'z navbatida, ma'lum iqtisodiy samarani yuzaga keltiradi.

Bunda ustuvor yo'nalishlarda soliq yukini yumshatish orqali davlat iqtisodiy rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratadi, boshqa yo'nalishlarda esa soliq yukining oshirilishi rivojlanish uchun qo'shimcha cheklavlarni keltirib chiqaradi. Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda nafaqat rag'batlantiruvchi choralarni (pasaytirilgan soliq stavkalari, soliq ta'tillari, soliq chegirmalari va boshqa imtiyozlar), balki innovatsion faollikni oshirish bo'yicha choralar ko'rmayotgan subyektlarga nisbatan cheklovchi (soliq stavkalarini oshirish, qo'shimcha soliqlarni joriy etish, imtiyozlardan foydalanishga cheklavlarni) hamda qoplab beruvchi (0-stavkani qo'llash) mexanizmlarni ham qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar vositasida rag'batlantirish samaradorligi, avvalo, rag'batlantiruvchi ta'sir yo'naltirilishi lozim bo'lgan soliq to'lovchilar doirasining aniq belgilanishi hamda tegishli soliq mexanizmlari majmuiga bog'liqdir. Innovatsion iqtisodiyot va uning ishtirokchilari bilan bog'liq yagona terminologiyaning mavjud emasligi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar orqali rag'batlantirish samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Soliq qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, "innovatsion korxona" tushunchasi, uni aniqlash mezonlari hamda yagona reestri amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilab berilmagan. Shu bois soliq to'lovchilarga innovatsion korxona maqomini berishning aniq algoritmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish taklif etilmoqda.



3-rasm. Soliq to'lovchiga innovatsion korxona maqomini berish algoritmi⁸

8 Тадқиқот давомидла муаллиф томонидан олиб борилган изланишлар асосида шакллантирилган.



Shuningdek, innovatsion faoliyatni voqealar zanjiri sifatida ham ifodalash mumkin: yangi bilimlar (g'oyalar) paydo bo'lishi – g'oyaning intellektual mahsulotga (innovatsiyaga) aylanishi – innovatsiyalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi – innovatsiyalarning tijoratlashtirilishi (innovatsion mahsulotni tijoriy jihatdan muvaffaqiyatli ishlab chiqarish) – innovatsion mahsulotning iste'moli. Ushbu zanjirning quyidagi asosiy bosqichlarini soliqlar vositasida rag'batlantirish mumkin: innovatsiyalarni ishlab chiqarish; innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish; innovatsiyalarning tijoratlashtirilishi; innovatsion mahsulot iste'moli.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar vositasida rag'batlantirishning belgilangan yo'nalishlari rag'batlantirish talab etiladigan subyektlar doirasini aniqlash imkonini beradi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Innovatsiyalarni yaratuvchi korxonalar. Hozirgi kunda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni rag'batlantiruvchi soliq vositalarining aksariyati aynan ushbu toifadagi korxonalar faoliyatiga yo'naltirilgan. Biroq iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar orqali rag'batlantirishning natijadorligi rag'batlantiruvchi ta'sirni boshqa toifadagi subyektlarga ham adekvat taqsimlashga bog'liq. Aks holda, innovatsion rivojlanish uchun muhim bo'lgan "innovatsiyalarni yaratish – joriy etish – tijoratlashtirish – iste'mol" zanjiri uziladi.


2. Innovatsion korxonalar yoki innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etuvchi tashkilotlar. Ushbu toifadagi subyektlar, fikrimizcha, ko'proq rag'batlantirishga muhtoj. Chunki ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Innovatsiyalarni faqat ishlab chiqarish yoki innovatsion mahsulotlarni iste'mol qilishni alohida rag'batlantirish innovatsiyalar eksportining yoki innovatsion mahsulotlar importining ortishiga olib kelishi mumkin.

3. Innovatsion mahsulot iste'molchilari bo'lgan korxonalar. Hozirgi kunda O'zbekistonda bunday korxonalar soni nisbatan kam bo'lib, ular innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirish maqsadida soliqlar vositasida rag'batlantirishga muhtoj.

4. Innovatsion infratuzilma korxonalari. Ushbu toifadagi subyektlarni soliqlar vositasida rag'batlantirish talab etiladigan subyektlar tarkibiga kiritish innovatsion infratuzilma korxonalarning faoliyati innovatsion jarayonning barcha bosqichlari bilan uzviy bog'liq ekanligi hamda innovatsion iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishi uchun muhimligi bilan izohlanadi.

Innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan xorijiy tajriba tahlili natijasida innovatsion faoliyatning turli bosqichlarini qamrab olish nuqtai nazaridan, shuningdek, nafaqat bevosita innovatsion korxonalarga, balki innovatsion faoliyatning boshqa subyektlariga ham rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan soliq mexanizmlaridan foydalanishda kompleks yondashuvning mavjudligi aniqlandi. Rivojlangan mamlakatlarning ushbu tajribasini soliqlar vositasida rag'batlantirish amaliyotida qo'llash mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali mexanizmga aylanishi mumkin.

Innovatsion faoliyatni soliqlar vositasida rag'batlantirish samaradorligining past bo'lishiga olib kelayotgan asosiy omillardan biri soliq imtiyozlarini ishlab chiqish va taqdim etishda kompleks yondashuvning mavjud emasligidir. Amaldagi soliq imtiyozlarining aksariyati innovatsion faoliyatning dastlabki bosqichida, ya'ni innovatsiyalarni yaratish jarayonida qo'llaniladi. Ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish va innovatsion mahsulotlarni iste'mol qilishni rag'batlantirishga qaratilgan samarali soliq mexanizmlari esa yetarli darajada shakllanmagan(4-rasm).



4-rasm. Korxonalarning innovatsion faoliyatiga taqdim etilgan soliq imtiyozlari va erishilgan natijalarning o'sish sur'atlari, % da



O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni soliq mexanizmi orqali tartibga solish, shu jumladan rag'batlantirish amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, rag'batlantirish obyektlari aniq belgilanmagan, erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar aniqlashtirilmagan holatda innovatsion faoliyat boshlanishi bilan muayyan yoki nomuayyan muddatga QQS, foyda solig'i va YaST (aylanmadan olinadigan soliq) kabi soliq turlaridan to'liq ozod qilish shaklidagi soliq imtiyozlari qo'llanib kelingan.

Holbuki, hozirgi kunda xalqaro tajribada innovatsion faoliyatni samarali rag'batlantirish instrumentlari sifatida asosan soliq kreditlari, soliq chegirmalari, soliq ta'tillari, shuningdek, pasaytirilgan va tabaqalashtirilgan soliq stavkalari qo'llanilmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlarning o'rtacha o'sish sur'atlari soliq imtiyozlarining o'sish sur'atlariga mos kelgan bo'lsa-da, innovatsiyaning asosiy sharti bo'lgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmi hamda innovatsiyalarni joriy etishning o'rtacha o'sish sur'atlari qariyb 3 baravar past bo'lgan.

Buning birinchi sababi soliq imtiyozlarining samarali shakllaridan yetarli darajada foydalanilmaganligi bo'lsa, ikkinchi sababi soliq imtiyozlarining innovatsion jarayonning barcha bosqichlarini qamrab olmaganligidir. Shu bois iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni soliqlar vositasida rag'batlantirishda rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning mavjud usullarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati mamlakatimizda innovatsion korxonalar uchun taqdim etilgan soliq imtiyozlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli amaliyotda foydalanish uchun to'liq mos emas. Shu bilan birga, mazkur uslubiyotlarni tahlil qilish asosida korxonalarning innovatsion faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari samaradorligini, tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilgan xarajatlarning samaradorligini, ushbu xarajatlarning innovatsion mahsulotga aylanish darajasini hamda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga soliq imtiyozlarining umumiy ta'sir etish samaradorligini baholash imkonini beruvchi takomillashtirilgan uchta koeffitsiyentni qo'llash taklif etiladi (3-jadval).

Innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatning turli bosqichlarini qamrab oluvchi, shuningdek, nafaqat bevosita innovatsion korxonalar, balki innovatsion faoliyatning boshqa subyektlariga ham rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi soliq mexanizmlaridan foydalanishda kompleks yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarning ushbu tajribasini mamlakatimiz sharoitida qo'llash iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

3-jadval. Innovatsion korxonalar uchun soliq imtiyozlari samaradorligini baholash koeffitsiyentlari

Koeffitsiyent, iqtisodiy ahamiyati va hisob-kitob formulasi	Shartli belgilanishi	Me'yoriy chegarasi
K1 - O'ti / Yb Davlat tomonidan korxonalarning innovatsion faolligini qo'llab-quvvatlashga taqdim etilgan soliq imtiyozlari (yo'naltirilgan har bir so'm) samaradorligi	O'ti – soliq imtiyozlari joriy qilinishi hisobiga korxonalarning tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirgan investitsiya-larining o'sishi (so'mda); Yb – soliq imtiyozlari joriy qilinishi natijasida budjetdagi (davlatning soliqli daromadlari qisqarishi) yo'qotishlar (so'mda)	Birdan katta yoki unga teng
K2 - O'Si / O'Sti Korxona-larning tadqiqot va ishlanmalarga qilingan xarajatlari samaradorligi, ularning innovatsion mahsulotga aylanishi darajasi (ulushi)	O'Si – soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida innovatsion mahsulot hajmining o'sish sur'ati %; O'Sti – soliq imtiyozlaridan foydalanishi natijasida tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlarning hajmining o'sish sur'ati %.	Birdan katta yoki unga teng
K3 - STim / YaIM K3 - IHim / YaIM Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga soliq imtiyozlarining umumiy ta'sir etish samaradorligi	YaIM – YaIM hajmi (so'mda); IHim – soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalarning innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (so'mda). STim – soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalarning innovatsion mahsulotlarini (tovar, ishlar, xizmat) sotishdan sof tushumi (so'mda).	0≤K3≤1

Innovatsion faoliyatni soliqlar vositasida rag'batlantirish samaradorligining pastligiga olib kelayotgan eng muhim omillardan biri soliq imtiyozlarini ishlab chiqish va taqdim etishda kompleks yondashuvning mavjud emasligidir. Amaldagi soliq imtiyozlarining aksariyati innovatsion faoliyatning dastlabki bosqichida, ya'ni innovatsiyalarni yaratish jarayonida qo'llaniladi. Ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish hamda innovatsion mahsulotlarni iste'mol qilishni rag'batlantirishga qaratilgan samarali soliq mexanizmlari esa yetarli darajada shakllanmagan.



Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotning turli subyektlari soliqlar vositasida rag'batlantirishga turli darajada muhtoj. Xususan, innovatsionlik darajasi past bo'lgan bilimlarning kelib chiqish bosqichida innovatsiyalarni yaratuvchi korxonalarni rag'batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bilimlarni ishlab chiqarishga joriy etish, ya'ni olingan bilimlarni aniq innovatsion mahsulot yoki texnologiyaga aylantirish bosqichida esa innovatsiyalarni joriy qiluvchi korxonalarni rag'batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida fiskal siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblangan soliq mexanizmi nafaqat davlat daromadlarini shakllantirish, balki iqtisodiy faollikni tartibga solish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash hamda innovatsion rivojlanishni rag'batlantirishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida 2019-yildan boshlab amalga oshirilgan soliq islohotlari, xususan, umumbelgilangan soliq rejimiga o'tish mezonlari, QQS to'lovchilari doirasining kengayishi va soliq stavkalarining pasaytirilishi soliq bazasining kengayishiga hamda soliq tushumlarining barqaror o'sishiga xizmat qilgan.

Biroq inflyatsiya darajasi, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, bazaviy hisoblash miqdori hamda xorijiy valyuta kurslaridagi o'zgarishlar inobatga olinganda, umumbelgilangan soliq rejimiga o'tish uchun belgilangan chegaraviy miqdor bugungi iqtisodiy sharoitlarga to'liq mos kelmasligi aniqlandi. Natijada kichik va o'rta biznes subyektlari uchun soliq yuki nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda ayrim hollarda norasmiy iqtisodiyotga o'tish xavfini kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqot natijalari soliq siyosatini takomillashtirishda xalqaro tajribani inobatga olish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasida kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq rejimlarining qo'llanilishi soliq yukini muvozanatlashtirishga va tadbirkorlik faolligini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali soliq rejimlarini yanada adolatli va iqtisodiy jihatdan samarali qilish imkoniyati mavjud.

Innovatsion rivojlanishni soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalari tahlili shuni ko'rsatdiki, amaldagi soliq imtiyozlari asosan innovatsiyalarni yaratish bosqichiga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va ularni tijoratlashtirish bosqichlari yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmayapti. Bu holat innovatsion jarayonning uzluksizligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Shu bois soliq rag'batlantirish mexanizmlarini innovatsion faoliyatning barcha bosqichlarini qamrab oladigan tarzda qayta ko'rib chiqish zarur.

Taklif etilgan K1, K2 va K3 koeffitsiyentlari innovatsion korxonalar uchun soliq imtiyozlarining real iqtisodiy samaradorligini baholash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichlar yordamida soliq imtiyozlarining budjet yo'qotishlariga nisbatan investitsiyalarni qanchalik oshirayotgani, tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilgan xarajatlarning innovatsion mahsulotga aylanish darajasi hamda umumiy iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi aniqlanishi mumkin.

Umuman olganda, soliq mexanizmini iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali instrumentga aylantirish uchun soliq imtiyozlarini ishlab chiqishda kompleks yondashuvni qo'llash, aniq mezonlar va natijadorlik ko'rsatkichlarini belgilash, shuningdek, samarali monitoring tizimini joriy etish muhim hisoblanadi. Bu esa mamlakatda raqobatbardosh innovatsion iqtisodiyotning shakllanishiga, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishiga hamda barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arestov, B. A., & Mikhailov, I. V. (2018). Fiscal Policy and Economic Growth: Theoretical and Empirical Studies. Moscow: Ekonomika Publishing.
2. Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. (2017). Economic Growth (3rd ed.). Cambridge, MA: MIT Press.
3. Blanchard, O., & Johnson, D. R. (2015). Macroeconomics (7th ed.). Pearson.
4. Devereux, M. P., & Griffith, R. (2019). International Taxation and the Global Economy. Oxford: Oxford University Press.
5. Fölster, S. (2020). Tax Policy and Corporate Behaviour: Evidence from OECD Countries. Journal of Economic Policy, 34(2), 125–150.
6. Fux, M., Heckemeyer, J. H., & De Simone, L. (2021). International Experience in VAT Thresholds: Policy Design and Effects. World Tax Journal, 13(1), 45–66.
7. Gale, W. G., & Slemrod, J. (2017). Rethinking Fiscal Policy. Washington, DC: Brookings Institution Press.
8. International Monetary Fund (IMF). (2019). Fiscal Monitor: Curbing Corruption. Washington, DC: IMF Publications.
9. International Monetary Fund (IMF). (2022). World Economic Outlook: Countering the Cost-of-Living Crisis. Washington, DC: IMF.
10. Johannesen, N., Tørsløv, T. R., & Wier, L. S. (2020). Are Less Developed Countries More Exposed to Multinational Tax Avoidance? Journal of International Economics, 123, 103–123.
11. Keen, M. (2016). The Anatomy of the VAT. National Tax Journal, 69(2), 441–464.



12. Khan, M., & Senhadji, A. (2018). Fiscal Policy and Economic Output: A Cross-Country Analysis. *Economic Modelling*, 74, 193–205.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, normativ-huquqiy hujjatlari (2019–2025). Toshkent: Adliya vazirligi.
14. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (tahrirlangan) (2023). Toshkent: Huquqiy axborot markazi.
15. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2021). *Tax Policy Reforms 2021*. Paris: OECD Publishing.
16. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). *Small Business Tax Compliance and Simplification*. Paris: OECD.
17. World Bank. (2019). *Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. Washington, DC: World Bank Group.
18. World Bank. (2024). *Global Economic Prospects*. Washington, DC: World Bank Group.
19. Zodrow, G. R., & Mieszkowski, P. (2017). Pigou, Tiebout, Property Taxation: Lessons for Local Fiscal Policy. *Journal of Urban Economics*, 101, 1–17.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
